


BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARINI INTEGRATSIYALASH



Shahrisabz davlat pedagogika
istituti pedagogika fakulteti

boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari

Nurxonova Madina,

Berdiyorova Zarbibi,

Qilichova Go‘zal,

Xurramova Madina

E-mail: nurxonovamadina7@gmail.com

Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasи

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda maktab ta’lim tizimida darslarni bir- biri bilan integratsiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu tushuncha kichik maktab o‘quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun tabiatshunoslik, rustili, musiqa va boshqa o‘quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligining qiziqlarliligi bilan harakterlanadi. Bolalarni tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog‘liqligini ko‘rishga o‘rgatish kerakligini o‘qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan, ta’lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi, uni qanday tashkil etish kerak kabi savollar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

KALIT SO‘ZLAR: obyekt, ta’lim tizimi, ta’lim poydevori, talab, dolzarb, o‘qituvchi, o‘quvchi, bola, fan, boshlang‘ich, maktab, tabiatshunoslik, Rus tili, musiqa, obyekt, integratsiya, tovush.

ANNOTATION

Currently, great attention is paid to the integration of lessons with each other in the school education system. This concept is characterized by the perception of the world around a young schoolchild as a whole, and the interest in the variety of sounds, colors, and sizes of objects in the world around him, not the names of natural science, geography, music, and other academic subjects. The teacher feels and knows that children need to be taught to see the connection between nature and everything in everyday life. Therefore, questions such as whether educational integration meets the requirements of the present day and how to organize it are gaining relevance.

KAYWORDS: object, educational system, educational foundation, demand, relevance, teacher, student, child, subject, primary, school, natural science, Russian language, music, object, integration, sound.

АННОТАЦИЯ

В настоящее время в системе школьного образования уделяется большое внимание интеграции уроков между собой. Для этого понятия характерно восприятие окружающего мира младшим школьником как целостного целого, причем для него важны не названия естествознания, географии, музыки и других учебных предметов, а интерес к разнообразию звуков, цветов, размеров предметов окружающего мира. Учитель чувствует и знает, что детей необходимо учить видеть связь между природой и всем в повседневной жизни. Поэтому такие вопросы, как отвечает ли образовательная интеграция потребностям сегодняшнего дня и как ее следует организовать, становятся все более важными.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: объект, система образования, образовательная основа, спрос, ток, учитель, ученик, ребенок, наука, начальная, школа, естествознание, русский язык, музыка, объект, интеграция, звук.

KIRISH



Bugungi rivojlanish va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar kundan kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda bilimlar bir butunlikda, o'zaro aloqadorlikda, har bir o'quvchining ongiga yetib boradigan holatda berilishi lozim. Shu jihatdan fanlar integratsiyasi — bolalarning hayotiy tajribasini boyitish, ularning tafakkurini rivojlantirish va bilimlarni uzviylikda shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Fanlarni Integratsiyalay olish pedagogning oldidagi mas'uliyatili vazifalardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Integratsiya- bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda birbiriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integrasiya fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan. Ulug' didaktik Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Birbiri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak".

Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak". Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta'kidlaydi. Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan, 10-12 yoshli bolalarga mo'ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. AQSH o'rta maktablarining katta sinflarida o'z ichiga fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik, poletalogiya va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi "Yerni o'rganish" fani kiritilgan. Chexoslovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan "Fuqaro tarbiysi" deb nomlangan kurs katta sinflarda kiritilgan Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqlashtirish va

individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta'lmini tabaqlashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishslashga tayyorgarlik darjasи hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirishdan iboratdir. Shuning uchun ham kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqeahodisalarni bir necha tomondan ko'rishi muhimdir. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagи bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rgatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan, tuzish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Biroq, integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, "qish", "sovuq", "bo'ron", kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi.

Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tish metodologiyasiga ega bo'ladi. Umumiy ta'limning poydevorini qo'yadigan boshlang'ich maklabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiyydir. Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarini o'rnatish psixologik va metodik asos bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'lказish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Integratsiyalashgan darslar – interaktiv ta'lim tizimi bo'lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va

kengaytirish asosida ko‘rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o‘rganadi. Ko‘rgazmali ta’lim tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan. Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta’lim tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko‘rgazmali) tarmog‘ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta’lim rejasidagi o‘qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to‘la o‘zlashtirish vaqtini o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi ko‘p maqsadli va rang-barangliliqi bilan tavsiflanadi. Har bir o‘quv predmetini o‘qiyotgan paytda o‘quvchilarga to‘g‘ri keladigan psixik qo‘zg‘alish hosil qilishi, bu materialni o‘zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsiyal anglashga, fikrlash qobiliyatining o‘sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagи bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rnatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunda turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

XULOSA

Darhaqiqat, integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish natijasida pedagogik, psixologik jihatdan ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda qulay shartsharoit vujudga keladi; umumdidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o‘quvchining vaqtini, kuchi tejaladi; ortiqcha ruhiy va jismoniy zo‘riqishlarning oldi olinadi, ta’lim samaradorligi oshadi. O‘quvchilar zarur ko‘nikma va malakalarni, tushunchalar hamda bilimlarni o‘quv predmetlari mazmunini uyg‘unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva S. "Innovatsion ta'lif texnologiyalari", Toshkent, 2020.
2. Karimov A. "Integratsiyalashgan o'qitish metodikasi", Samarqand, 2021.
3. Vygotskiy L.S. "Pedagogik psixologiya", Moskva, 2005.
4. Dewey J. "Experience and Education", New York, 1938. UNESCO report on education for sustainable development, 2020.
5. Shodmonov Yo.G. "Ta'limda zamonaviy metodlar", Toshkent, 2019.
5. .R. Mavlyanova, N. Raxmanqulova "Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi innovatsiya va integratsiya integratsiya" Toshkent "Voris-nashriyot" 2013.
6. Anvarovna, Umarova Dilafroz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEUmarova,